XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-iyun VII-14-86-7-0-K/25 Samarqand viloyati

Hududlarda qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-fevraldagi 23-sonli majlis bayoni, viloyat hokimi o‘rinbosari (A.Shukurov)ning 2025-yil 21-apreldagi (229/01-30-sonli) bildirgisi, “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” DM viloyat boshqarmasining 2025-yil 12-apreldagi (196-sonli) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 28-oktabrdagi (02/05-38/2789-sonli) xulosasiga asoslanib, viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash va tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI :

1. Samarqand viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun to‘lov tariflari miqdori ilovaga muvofiq maqullansin.

2. Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Shukurov) viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida viloyat hokimining qaror loyihasini belgilangan tartibda ishlab chiqsin.

3. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” DM viloyat boshqarmasi (N.Baymuratov) chiqindilarni hududlardagi poligonlarga qabul qilish va saqlash bo‘yicha assosiz ravishda belgilangan narxlarni oshirib yubormaslik uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Viloyat televideniyesi v.v.b (D.Ismatov), “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati (F.Toshev)ga qaror ijrosi bo‘yicha hududlarda amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Po‘latov) hamda viloyat hokimi o‘rinbosari (A.Shukurov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi YULDASHEV SHERALI MAMARAIMOVICH

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 20-iyundagi
VII-14-86-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun uchun to‘lov tariflari MIQDORI

so‘mda

T/r	Tashkilot nomi	1 m^3 uchun		1 tonna uchun	
		QQS siz	QQS bilan	QQS siz	QQS bilan
1	“Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” DM Samarqand viloyati boshqarmasi	16 433	18 405	39 886	44 672